

# Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> January, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

## KIBERXAVFSILIK- RAQAMLI IQTISODIYOTNING MUHIM SHARTI

Qilichov Sobir Savriyevich

Toshkent Amaliy Fanlar Universteti, Assistenti

### Annotatsiya

Mamlakatimizda joriy etilayotgan zamonaviy raqamli texnologiyalar, fuqarolarimizga qator qulayliklar va imkoniyatlar yaratishi bilan bir qatorda, yaratilayotgan raqamli texnologiyalar va axborot tizimlarining xavfsizligini ta'minlash muammosi ham mavjud. Ushbu maqolada kiberhujumlardan himoya qilishning xususiyatlari ochib berishga harakat qilingan.

**Kalit so'zlar:** *“Raqamli iqtisodiyot”*, raqamli platforma, kiberxavfsizlik, kiberterrorizm, kiberekstremizm, *“Raqamli O'zbekiston – 2030”*.

Mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, barcha tarmoqlar va sohalarda, eng avvalo, davlat boshqaruvi, ta'lim, sog'liqni saqlash va qishloq xo'jaligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bugun uydan chiqmasdan to'lovlarni amalga oshirish, hech bir muammosiz masofaviy ta'lim olish, dunyoning yirik kutubxonalaridan foydalanish va hatto ishlash mumkin. Raqamli xizmatlar an'anaviy turga qaraganda qog'ozbozlik, rasmiyatchilikning yo'qligi, vaqtni tejash kabi bir qator afzalliklarga ega. Masalan, davlat xizmatlarini raqamli ko'rinishda olsangiz, sizga belgilangan to'lovning 10 foizi miqdorida chegirma taqdim etiladi. Bularning barchasi mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotga faol o'tilayotganligining belgisidir.

Raqamli iqtisodiyot - bu raqamli texnologiyalarga asoslangan iqtisodiyotdir, ammo ko'p jihatdan raqamli iqtisodiyot Internet va Butunjahon internet tarmoqlariga asoslangan bozorlarda biznes operatsiyalarini amalga oshirishini tushunamiz. Raqamli iqtisodiyot – raqamli axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishga asoslangan iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy munosabatlar tizimi. Raqamli iqtisodiyot – bu xo'jalik faoliyati, bunda ishlab chiqarishning asosiy omili raqamli ma'lumotlarni



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> January, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

ishlab chiqarish, katta hajmlarni qayta ishlash va tahlil natijalaridan foydalanish bo'lib, ular an'anaviy boshqaruv shakllariga nisbatan har xil turdagi mahsulotlar, texnologiyalar, asbob-uskunalar, saqlash, sotish, yetkazib berish samaradorligini sezilarli darajada oshirishi mumkin. Raqamli iqtisodiyotning eng muhim va hal qiluvchi texnologiyasi raqamli platformadir. Raqamli iqtisodiyot platformasi – iste'molchilar va ishlab chiqaruvchilarning ehtiyojlarini ta'minlaydigan funktsiyalar va xizmatlar to'plami bilan raqamli muhit (dasturiy va apparat kompleksi), shuningdek, ular o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri muloqot qilish imkoniyatlarini amalga oshiradi.

Ushbu islohotlar doirasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi PF-6079 sonli farmoni qabul qilindi. Unga ko'ra "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasini amalga oshirish bo'yicha muvofiqlashtirish komissiyasi tuzilib, mamlakatimizning raqamli iqtisodiyotini rivojlantirish bo'yicha raqamli iqtisodiyot sohasidagi yangi loyihalarni ko'rib chiqish va ularni amalga oshirish to'g'risida qarorlarni qabul qilish, shuningdek, zarur hollarda hudud va tarmoqlarni raqamli transformatsiya qilish dasturlari hamda "yo'l xarita"lariga tayyorlangan va kelishilgan loyiha hujjatlari asosida o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish kabi bir qancha vazifalar yuklatildi.

Bugungi kunda mamlakatimizda joriy etilayotgan zamonaviy raqamli texnologiyalar, fuqarolarimizga qator qulayliklar va imkoniyatlar eshigini ochmoqda. Mazkur jarayon bilan bir qatorda, yaratilayotgan raqamli texnologiyalar va axborot tizimlarining xavfsizligini ta'minlash muammosi ham mavjud, albatta. Bu eng dolzarb masalalardan biri - kiberxavfsizlikni ta'minlash, sodir etilishi mumkin bo'lgan kiberjinoyatlarning oldini olish va unga qarshi kurashish masalasi hisoblanadi. Kundan-kunga takomillashib ketayotgan kiberjinoyatchilikka qarshi kiberxavfsizlikni ta'minlashda quyidagi asosiy talablarni bajarish orqali ulardan himoyalani, ya'ni kiberxavfsizlikni ta'minlashimiz mumkin:

- xodimlarga axborot xavfsizligi asoslarini o'rgatish;
- foydalanayotgan dasturiy mahsulotlarning zaifliklarini doimiy sinovdan o'tkazish;
- ishonchli antivirus dasturidan foydalanish;



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> January, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

- litsenziyalangan rasmiy dasturlardan foydalanish;
- axborot tizimlarini himoyalashda ko'p faktorli autentifikatsiyadan foydalanish;
- parollardan foydalanishda kuchli parolni saqlash siyosatiga rioya qilish;
- muntazam ravishda komp'yuter qattiq disklaridagi ma'lumotlarni shifrlash.

Shu o'rinda, mamlakatimizda kiberjinoyatlarning oldini olish va unga qarshi kurashni olib boruvchi vakolatli davlat idoralariga ham muayyan vazifalar yuklanishini alohida ta'kidlash lozim.

2022-yil 26-may kuni «UNICON.UZ» DUK binosida «Kiberxavfsizlik markazi» DUK va «UNICON.UZ» DUK o'rtasida hamkorlik to'g'risidagi memorandumni imzolash marosimi bo'lib o'tdi. Memorandumning asosiy maqsadi ikki tashkilot o'rtasidagi hamkorlik bo'yicha yangi loyihalar va tadbirlar ustida ishlash hamda O'zbekiston Respublikasining axborot va kiberxavfsizligini ta'minlashdan iboratdir.

Shuningdek, memorandumda istiqbolli ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlarini birgalikda amalga oshirish, ustuvor huquqiy hujjatlar va me'yoriy-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish, axborot texnologiyalari va kommunikasiyalari sohasida kiberxavfsizlikni ta'minlash, jumladan, axborot xavfsizligiga tahdidlarning oldini olish bo'yicha loyihalarni birgalikda amalga oshirish ko'zda tutilgan.

Bundan tashqari, Memorandumda O'zbekiston Respublikasi davlat organlari va tashkilotlarida axborot va kiberxavfsizlik darajasini oshirish maqsadida tajriba almashish, mutaxassislar malakasini oshirish, ekspertiza va sertifikatlashtirish ishlari doirasida o'zaro manfaatli hamkorlik qilish bo'yicha kelishuvga erishildi.

Xususan, ular kiberjinoyatchilikka qarshi kurash faoliyatida O'zbekiston Respublikasi va uning xalqini axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari orqali amalga oshirilayotgan yoki bunga imkon berayotgan shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligini va ularning manfaatlari tashqi hamda ichki kibertahdidlardan himoya qilinishini ta'minlash, mazkur sohada qonuniylik va qonun ustuvorligini mustahkamlash, kiberjinoyatlar va kiberhuquqbuzarliklarning oldini olish, ularni aniqlash va barham berish kabi vazifalarni amalga oshirishi darkor. Shuningdek, kiberjinoyatlar va kiberhuquqbuzarliklarni tergov qilish va ularni aniqlash, bartaraf etish



# Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> January, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

hamda oldini olish bo'yicha zarur qarorlar qabul qilish, kiberjinoyatchilikka qarshi kurashish bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqishda ishtirok etish, kiberterrorizm, kiberekstremizm, uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashish, davlat organlari manfaatlariga hamda kiberxavfsizligiga tahdid soluvchi kiberhatarlarni aniqlash va ularga qarshi kurashish, kiberjinoyatlar bo'yicha tergovga qadar tekshiruv va dastlabki tergovni o'tkazish, tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshirish, fuqarolarning huquq va erkinliklariga tahdid soluvchi kiberjinoyatlarning sodir etilishiga imkon yaratuvchi sabablar hamda shart-sharoitlarni aniqlash va bartaraf etish kabi muhim vazifalarni bajarishi lozim.

Yurtimizda olib borilayotgan barcha islohotlar zamirida xalqimizga qulayliklar yaratish maqsadi yotibdi. Kiberxavfsizlikni ta'minlashga alohida e'tibor qaratilishi raqamli imkoniyatlardan ishonchli va xavfsiz tarzda foydalanishga zamin bo'lib kelmoqda.

## Foydanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-noyabrdagi "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora – tadbirlari to'g'risidagi PF-6079 sonli farmoni
2. G'.M. Porsaev, B.SH. Safarov, D.Q. Usmanova. Raqamli iqtisodiyot asoslari. Darslik. –T.: "Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi", 2004.
3. Sharofitdinov, A. O'smirlarda jinoyatchilik xulqining kelib chiqishi. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 2(6), 78-81. извлечено от  
<https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/5489>
4. Азимов Б. Ф., Рахимова Д. Д. ЭКОНОМИЧЕСКАЯ БЕЗОПАСНОСТЬ И ЕЕ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ //Редакционная коллегия. – 2022. – С. 351.
5. Безкорвайный М. М., Татузов А. Л. Кибербезопасность подходы к определению понятия //Вопросы кибербезопасности. – 2014. – №. 1 (2). – С. 22-27.
6. Вешкурова М. Д. УГРОЗЫ ИНФОРМАЦИОННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ //XIV Международный



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> January, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

молодежный форум «Образование. Наука. Производство»: эл. сборник. – С. 29.

7. Зегжда Д. П. и др. Кибербезопасность прогрессивных производственных технологий в эпоху цифровой трансформации // Вопросы кибербезопасности. – 2018. – №. 2 (26). – С. 2-15.
8. Ясенова В. С. ИНФОРМАЦИОННАЯ БЕЗОПАСНОСТЬ В СИСТЕМЕ ПРАВООТНОШЕНИЙ В СОВРЕМЕННОМ МИРЕ //ЦИФРОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ И ПРАВО. – С. 419.



# E- Conference Series

Open Access | Peer Reviewed | Conference Proceedings



E- CONFERENCE  
SERIES